

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING KREATIVLIGINI
RIVOJLANTIRISH ASOSIDA IJODIY KO'NIKMALARINI
SHAKLLANTIRISH**

Dauletmuratova Bayramgul Maxsetbay qizi

*13.00.01- Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi 1-bosqich tayaynh
doktoranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodkorlik qobiliyatini shakllantirish, mustaqil ilmiy va amaliy faoliyat olib borishida ijodiy izlanishlarning ahamiyati yoritilgan. Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy faoliyatini amalga oshirishlari uchun shart – sharoitlar yaratib berilishi, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi do'stona munosabatda bo'lishlari keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ijod, ijodkorlik, ta'lim – tarbiya, istedod, individual – psixologik, subyekt, motivatsiya.

Zamonaviy ta'limning mohiyatini ochib berish, pedagog faoliyatini keng qamrovli yoritish. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy mahorat va darsga ijodiy yondoshib, unda o'qitishning yangi shakl usullarini qo'llash. Ta'lim o'qituvchi va o'quvchilarning hamkorlikdagi faoliyati bo'lib, shu jarayonda shaxsning taraqqiyoti, uning ma'lumoti va tarbiyasi ham amalga oshadi.

Darslarda o'qituvchi o'z bilimi, ko'nikma va malakalarini mashg'ulotlar vositasida o'quvchilarga yetkazadi, o'quvchilar esa uni o'zlashtirib borishi natijasida undan foydalanish qobiliyatiga ega bo'ladi. O'rganish jarayonida o'quvchilar o'zlashtirishning turli ko'rinishlaridan foydalanishadi, ya'ni o'zlashtirilayotgan ma'lumotlarni qabul qilish, qayta ishlash hamda amaliyotga tatbiq etishda o'ziga xos tafovutlarga tayanadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilarning dars paytidagi hamkorligi, o'quvchilarning mustaqil ishlashi, sinfdan tashqari ishlar shaklida ta'lim va tarbiya masalalari hal etiladi.

Ijodkorlik - faoliyatning turli holatlarida paydo bo'ladi. Qiziqish ilhom, intilish va boshqalar ijodkorlikning inson ongida eng oliy tarzda paydo bo'lishidan, namoyon bo'lishigacha jarayonini o'z ichiga oladi. SHaxsda faoliyat ehtiyoji faoliyatda yangi ilgari maqsad qilib qo'yilmagan, hal etuvchi vosita bo'lib hisoblanmagan intilishdir. Ijodkorlik- sifat jihatdan yangi, moddiy va ma'naviy boyliklar yaratuvchi inson faoliyati jarayoni. Ijodkorlik o'zida insonning mehnatda namoyon bo'lgan qobiliyatini ifodalaydi. Ob'ektiv olam qonuniyatlarini bilish asosida xilma-xil

ijtimoiy ehtiyojlarini qanoatlantiradigan yangi haqiqatni yaratadiganday mehnat ijod bo'lishi mumkin. Ijod turlari bunyodkorlik faoliyati bilan belgilanadi: ixtirochi, tashkilotchi, mehnati ilmiy va badiiy mehnat va boshqalar. Ijodiy faoliyat uchun imkoniyatlar ijtimoiy munosabatlarga bog'liq. Bugungi kunda mustaqillik tufayli amalga oshirilayotgan ta'lim islohotlari o'z ishiga ijodiy yondashuvchi, fan, texnika, san'at, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga o'z hissasini qo'shadigan yuksak malakali kadrlar tayyorlashga bog'liq. SHunga ko'ra, jamiyat taraqqiyoti talabalaridan kelib chiqqan holda har bir o'quvchini ijodkorlik ruhida tarbiyalash muhim va zarurdir.

Psixolog olim N.D.Levitov ijodiy faoliyatni quyidagi mezonlar asosida vujudga kelishini isbotladi:

- tafakkurning mustaqilligi;
 - o'quv materialining o'zlashtirilishi, tezligi va mustahkamligi;
 - standart bo'lmagan vazifalarni hal qilishda, aqliy chamalashning (topqirlikning) tezligi;
- o'rganib chiqilayotgan hodisalarning mohiyatiga chuqur kirib borish orqali muhim bo'lmagan narsadan muhimini ajrata bilish.

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish shart-sharoitlari deganda, avvalo ana shu shart-sharoitlarning paydo bo'lishi, amalga oshishi hamda rivojlanishi jarayoni tushiniladi. Ular quyidagilardan iborat :

1. O'quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirishda ularning bu borada egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari.
2. Ijodiy faoliyatni shakllantirishda nazariy bilimlar bilan amaliyotning aloqadorligi.
3. Ijodiy faoliyatni shakllantirishga doir mashg'ulotlar evristika muammoli vaziyatlar yaratish.
4. O'quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishga texnologik yondashuv.

Ijod – insonning yangi moddiy va ma'naviy ne'matlar yaratish faoliyati. Unda inson tafakkuri, xotirasi, tasavvuri, diqqati, irodasi faol ishtirok etadi, butun bilimi, tajribasi, iste'dodi namoyon b'oladi. Ijod dastlab inson tasavvurida tug'iladi, keyin ijodga taaluqli masalalar yuzasidan izlanishlar olib boriladi va shu tarzda ijodiy faoliyat davom etadi.

1-sinflarni darslarni o'quvchilar tushinchalari yordamida tashkil etish mumkin. O'qituvchi o'quvchilarning dastlapki xayoliy usullarini o'rganadi va bularni asosida qiziqarli voqealar, topishmoqlar, ertaklar, tez aytishlar yuzaga keladi. Bolalar ijodini

rivojlantirishda mana shunday xalq o'g'zaki ijodining ham ahamiyati katta. O'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishda ular ijod namunalarini yaxshi o'zlashtirgan va avvaldan u haqida ozgina b'olsa da tushunshaga ega b'olishi kerak.

2-sinfda o'quvchilar birqancha narsalarni erkin bajara oladi. O'quv yili oxirida o'quvchilar dars mavzui bilan aloqador tayanch so'z va tushunchalar asosida kichik voqea, ertaklarni tuza oladigan bo'lishlari zurrur.

3-sinfda o'quvchilarning muhiti har xil b'oladi. Bolalar darsliktagi mavzular asosida tuzgan yangi voqealarini o'zi erkin bayon qila olishi kerak. O'quvchilarning qiziqishlari , ularning savollari har sohalarga oid b'oladi va javoblarini ham harxil sohalarda b'olishini istaydilar.

4-sinfda o'quvchilar oson va erkin holda ertaklarni tuza oladi. Ularning orasida harxil tadbir va musobaqalarni tashkil etish mumkin.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning ijtimoiy psixologik xususiyatlari qanday bo'ladi degan savolga biz quydagicha javob beramiz, tez va turli yo'llar bilan natijaga erishadi, o'zi qarorlar qabul qilishni o'rganadi va uni takomillashtiradi, o'zining salohiyati va ambitsiyalarini amalga oshiradi, o'qish sharoitlariga osonroq va to'liqroq moslashishadi, duch kelgan muammolarni hal qilishda moslashuvchan, aniq va samarali hal qila olish xususiyatlariga ega bo'ladi. Bola shaxsining ijodkor bo'lishiga o'qituvchi va murabbiylar sharoitlar yaratib berishi lozim, shunda jamiyatimizda yangi ixtirolar, innovatsiyalar paydo bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytishim kerakki, har bir o'quvchini boshlang'ich sinfga kelganidan uning qanday ijodga qiziqishi, qolidan nimalar kelishi haqida do'stona suhbat qurish kerak. Albatta har bir o'quvchining o'z istedodi bo'ladi ularni bilib olish uchun esa o'qituvchidan pedagogik mahorat talab qilinadi. O'qituvchi o'quvchining ijodkorlik qobiliyatini yanada shakillantirish uchun unga maxsus sharoitlar qilib berishi talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Дилова Н.Г. Значение процесса педагогического сотрудничества в формировании личности учащихся начальных классов. Сборники конференций НИЦ Социосфера. (2014).
2. Расулова З.Д. Программные инструменты - важный фактор развития творчества учащихся. Вестник науки и образования. (2020)
3. Mavlyanova R.A. Paxmankulova N.X Boshlang'ich ta'limda innovatsiya (metodik qo'llanma). -Toshkent, 2017.
4. Bobaqulova D.M. Umumiy pedagogika (o'quv qo'llanma). –Toshkent, 2021 .

5. SEMPO, Y. E., & KİTABI, B. (2017). ULUSLARARASI TÜRK DÜNYASI. 7. Michael McCarthy and Felicity O'Dell." English Idioms in Use"—Cambridge university press.—L.
6. Madayev, O., Sobirov, A., Xolmanova, Z., Toshmirzayeva, S., Ziyodullayeva, G., & Shamsiyeva, M. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Va O‘Rta Maxsus Ta’lim Vazirligi.
7. Xolmanova, Z., & Shamsiyeva, M. Bolada bilingvizmni shakllantirishda ona tilining ahamiyati. O‘ZBEKISTON, 6.
8. Darsliklar 1-2-3-4-sinf Ona tili va óquv savodxonligi.